

PAPER

SUNIY INTELLEKT VA INSON FAOLIYATINING MEHNAT BOZORIDAGI ORNI: IJTIMOYIY VA IQTISODIY TASIRLAR

Abdurazaqova Sojida Raxmat qizi^{1,*}

¹Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti tayanch doktoranti

*mailto:1sojidaabdurazakova9@gmail.com

Abstract

Suniy intellekt (SI) texnologiyalari bugungi mehnat bozorida muhim ozgarishlarga sabab bolmoqda. Ular avtomatlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali samaradorlikni oshiradi, ammo shu bilan birga ananaviy kasblarning yoqolishiga, yangi kasblarning paydo bolishiga ham olib kelmoqda. Maqola suniy intellektning mehnat bozoriga tasirini tahlil qiladi, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini korib chiqadi. Ayniqsa, ish orinlarining taqsimlanishi, yangi malakalarga ehtiyoj va ijtimoiy tenglik masalalari alohida etiborga olinadi. Shuningdek, mehnat huquqlari, talim va malaka oshirishning muhimligi, hamda hukumat va xalqaro tashkilotlarning suniy intellektni boshqarishdagi roli haqida ham soz boradi. Ushbu maqola suniy intellekt texnologiyalarining mehnat bozoriga tasirini chuqurroq tahlil qilib, yangi iqtisodiy va ijtimoiy paradigmalarni yaratish zarurligini takidlaydi.

Key words: Suniy intellekt, mehnat bozori, avtomatlashtirish, yangi kasblar, ijtimoiy tenglik, malaka oshirish, ish orinlari, mehnat huquqlari, talim tizimi, xalqaro hamkorlik.

Kirish

Bugungi kunda suniy intellekt (AI) texnologiyalari barcha sohalarida sezilarli rivojlanish korsatmoqda. Bu texnologiyalar, xususan, mehnat bozorida kuchli ozgarishlarga olib kelmoqda. AI va avtomatlashgan tizimlarning keng tarqalishi ishchi kuchining avtomatlashtirilishi, ishlab chiqarish jarayonlarida inqiloblar yaratishi, shuningdek, yangi ish orinlarini tashkil etish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, jismoniy va takrorlanuvchi ishlarni bajarishda ko'plab kasblarning yoqolishi, shu bilan birga, yangi malakalar va konikmalar talab etadigan kasblarning paydo bolishi mehnat resurslarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalarning mehnat bozorida ro'y berayotgan ozgarishlarga qanday tasir ko'rsatishini organish, zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Suniy intellekt va avtomatlashgan tizimlarning mehnat bozoridagi roli jadal osib bormoqda. Bugungi kunda ish orinlarining avtomatlashtirilishi, yangi turdagi ish orinlarining yaratilishi va kasblarning shakllanishi iqtisodiy jarayonlarni tezda o'zgartirmoqda. Bunda, ishchilarning mehnat bozoridagi orni, ularning malakalari va oqitilishi masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, AI texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat iqtisodiy ozgar-

ishlarga, balki ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy masalalarga ham olib kelmoqda. Masalan, ish orinlarining yoqolishi va yangi kasblarning shakllanishi jamiyatda iqtisodiy tengsizlik, gender va etnik tenglik kabi masalalarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu ozgarishlar, shuningdek, mehnat huquqlari, talim tizimi va ishchilarning malakalariga bolgan talablarni qayta korib chiqishni taqozo etadi. Shuning uchun, suniy intellekt texnologiyalarining mehnat bozoridagi oqibatlarini chuqur tahlil qilish va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar yaratish zarurati mavjud.

Asosiy qism

Maqsad va vazifalari xaqida soz yuritadigan bolsak, ushbu maqoladagi asosiy maqsad — suniy intellekt texnologiyalarining mehnat bozoriga tasirini keng qamrovli tarzda tahlil qilishdir. Maqsadimiz, AI texnologiyalarining ish orinlariga va mehnat resurslarini taqsimlashdagi ornini, shuningdek, jamiyatning yangi iqtisodiy va ijtimoiy paradigmalarga qanday moslashishi zarurligini korib chiqishdir. Shuningdek, yangi kasblarning paydo bolishi, eski kasblarning yoqolishi, mehnat bozorida yuzaga keladigan muammolar, va bu ozgarishlarga qarshi qanday siyosat va strategiyalar ishlab

chiqish kerakligi masalalari ham organiladi. AI texnologiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy tasiri, ishchilarning malaka oshirishga bolgan ehtiyoji, va talim tizimining yangi sharoitga moslashuvi ham tahlil qilinadi. Bularning barchasi, mehnat bozoridagi ozgarishlarga samarali javob berish va iqtisodiy barqarorlikni taminlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Suniy intellektning mehnat bozoriga tasiri, ish orinlarining ozgarishi haqida fikr yuritamiz. Suniy intellektning rivojlanishi mehnat bozorida sezilarli ozgarishlarga sabab boldi. Koplab ananaviy kasblar endi avtomatlashtirilgan tizimlar tomonidan bajarilmoqda. Misol uchun, ishlab chiqarish va logistika kabi sohalar robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar ishlarni amalga oshirayotgani, ayrim ish orinlarini yoq qilmoqda. Ammo bu ozgarish nafaqat ishsizlikni, balki yangi konikmalarni va ish orinlarini yaratish imkoniyatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Bu ozgarishlar, ayniqsa, yuqori texnologik sohalarida yangi malakali ishchi kuchini talab qilmoqda.

Yangi imkoniyatlar va kasblar kesimini qarab chiqadigan bolsa, mehnat bozoridagi suniy intellektning tasiri yangi kasblarning paydo bolishiga olib keldi. Endi AI tizimlari, malumotlar tahlili (big data), robototexnika va boshqa texnologiyalar boyicha yangi sohalar shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu sohalar yuqori malakali mutaxassislar va tajribali ishchilarga ehtiyojni oshirmoqda. Yangi kasblar — masalan, AI dasturchilari, robototexnika injenerlari va malumotlar analitiklari — yuqori darajadagi bilim va maxsus tayyorlanishni talab qiladi. Bunday ozgarishlar, talim tizimining yangilanishini va mehnat bozorining talablariga mos kadrlarni tayyorlashni zarur qiladi.

Mehnat bozorida AI texnologiyalarining iqtisodiy tasiri ham dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat bozorida suniy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy tasiri keng va murakkab bolib, bu texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi imkoniyatlar yaratish orqali iqtisodiy osishni ragbatlantiradi. Biroq, ularning joriy etilishi eski kasblarning yoqolishiga va yangi kasblarning paydo bolishiga olib kelishi mumkin, bu esa mehnat bozorida ozgarishlar va noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Avtomatlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirsa-da, yangi texnologiyalarni qabul qilish va moslashuvni talab etadi, bu esa talim va malaka oshirish tizimlarini yangilashni talab qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni taminlash va ishchilarni yangi sharoitlarga moslashtirish uchun samarali siyosatlar va xalqaro hamkorlik zarur boladi.

Iqtisodiy ozgarishlar. Suniy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarda sezilarli ozgarishlarni keltirib chiqarmoqda. AI tizimlari ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirayotgani, yangi texnologiyalarning yirik korxonalar va kichik bizneslar uchun rentabellikni yaxshilashga imkoniyat yaratmoqda. Misol uchun, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari va malumotlarni tahlil qilish orqali korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Bu ozgarishlar iqtisodiy osishni ragbatlantirishi va yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin, ammo ularning tasiri turli sohalarida va davlatlar boyicha farqlanadi.

Ish orinlarining qiyinchiliklari va taqsimoti. Avtomatlashtirishning inson mehnatiga tasiri ish orinlarining geografik va ijtimoiy taqsimlanishiga tasir qilmoqda. Suniy intellekt va robototexnikaning keng joriy etilishi bazi kasblarni qisqartirishga, boshqalarini esa yangilashga olib kelmoqda. Ushbu ozgarishlar bazi hududlarda yoki ijtimoiy guruhlarda ishsizlik darajasining oshishiga olib kelishi mumkin, chunki yangi texnologiyalar koproq malakali ishchilarga ehtiyojni oshiradi. Biroq, AI texnologiyalarining mehnat bozoridagi taqsimotga tasiri turli jamiyatlar va iqtisodiy tuzilmalar ortasida bir xil bolmaydi, shuning uchun ularni teng taqsimlash va adolatli foydalanuvchi tarmoqlarini yaratish muhim hisoblanadi.

Suniy intellekt va ishchilarning ijtimoiy tasiri. Ijtimoiy tenglik va mehnat huquqlari. Suniy intellekt texnologiyalarining mehnat bozorida kengayishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tenglikka ham sezilarli tasir krsatmoqda. Bu tasir ayniqsa gender va etnik tenglik

masalalarida kuchliroq aks etadi. AI tizimlarining rivojlanishi va avtomatlashtirish jarayonlari bazi guruhlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratishi mumkin, ammo bu jarayon bazi ishchilarni ozgarishlarga moslashishda qiyinchiliklarga duchor qilishi mumkin. Masalan, bazi kasblarda erkaklar yoki bazi etnik guruhlar koproq vakillikka ega bolsa, boshqa guruhlar suniy intellekt tizimlarini tushunish va ularga moslashishda oziga xos tosiqlarga duch kelishi mumkin. Bunday ozgarishlar mehnat bozoridagi ijtimoiy tenglikni taminlashni murakkablashtiradi. Shu sababli, suniy intellektni boshqarishda, hukumatlar va tashkilotlar ijtimoiy adolatni taminlashga, ishchilarning huquqlarini himoya qilishga va mehnat bozorida tenglikni saqlashga alohida etibor qaratishlari zarur. Aks holda, suniy intellektning tasiri qisman notenglikni kuchaytirishi va ijtimoiy ajralishlarni kuchaytirishi mumkin. Bu masalalarni hal qilish uchun maxsus siyosatlar va regulyatsiya mexanizmlari ishlab chiqish, shuningdek, suniy intellektni boshqarishda barcha guruhlarning manfaatlarini inobatga olish zarur.

Talim va malaka oshirish jarayonida suniy intellekt va ilgor texnologiyalarni kengaytirish va joriy etish, ishchi kuchining yangi konikmalar va bilimlarga bolgan talabini keskin oshirmoqda. Bugungi kunda, koplab ishchilardan ananaviy kasblarda ozgarishlarga moslashish, yangi texnologiyalarni organish va ularni amaliyotda qollash kutilmoqda. Shu bilan birga, talim tizimlari va malaka oshirish dasturlari bu ozgarishlarga muvaffaqiyatli moslashish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Suniy intellektdan foydalanish yangi avlodni talab qiladi — bu avlod raqamli savodxonlikka ega bolib, zamonaviy texnologiyalarni ozlashtirishda yetarlicha bilim va konikmalarga ega bolishi kerak. Talim tizimlarida bu yangi ehtiyojlarni qondirish uchun ozgartirishlar kiritish, kasb-hunar talimini yangilash, va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish talab etiladi.

Oqitish jarayoni nafaqat yangi texnologiyalarga moslashtirish, balki ishlovchilarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi sohalaraga yonaltirish va mehnat bozoridagi ozgaruvchan talablar bilan mos kelishini taminlashga ham xizmat qiladi. Malaka oshirish dasturlari nafaqat texnik bilimlarni, balki ijtimoiy va jamoaviy konikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan bolishi kerak. Mehnat bozorida yangiliklarga moslashish jarayonida, talim tizimi va malaka oshirish kurslari inson resurslarini yangi ehtiyojlarga moslashtirishda muhim rol oynaydi. Bu nafaqat yangi ish orinlarining paydo bolishini taminlash, balki ishlashga qodir bolmaganlar uchun qayta tayyorlash imkoniyatlari yaratishni ham oz ichiga oladi. Yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni keng qollash, shu bilan birga, yangi kasb-hunarlarni rivojlantirishda talim tizimlari va malaka oshirish dasturlarining orni beqiyosdir.

Shuningdek, mehnat bozoridagi barqarorlikni taminlash uchun davlat va xususiy sektor ortasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Raqobatbardosh kuchli ishchi kuchini yaratish uchun, suniy intellekt texnologiyalari va raqamli savodxonlikni ozlashtirishda oquv markazlari va treninglar tashkil etish, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar va kam rivojlangan hududlarda bunday dasturlarni rivojlantirish zarur. Bu yondashuvlar, yangi kasblarga tayyorlangan, malakali ishchi kuchini shakllantirish, mehnat bozoridagi tengsizliklarni kamaytirish va jamiyatda umumiy farovonlikni oshirishga yordam beradi.

Mehnat bozorida AI tizimlarini boshqarish. Hukumat va xalqaro yondashuvlar asosida suniy intellektning mehnat bozoridagi roli ortib borishi bilan, davlat siyosatlar va regulyatsiya mexanizmlari muhim ahamiyatga ega boladi. Texnologik inqilobning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari hukumatlar tomonidan samarali boshqarishni taqozo etadi. Shunday qilib, hukumatlar yangi texnologiyalarni boshqarish uchun aniq va samarali siyosatlar ishlab chiqishlari, mehnat bozorining barqarorligini taminlashga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqishlari zarur. Buning uchun, yangi ish orinlarini yaratish va mavjud kasblarning qayta shakllanishini nazorat qilish muhimdir. Hukumatlar bu jarayonni ishlab chiqarish va xizmatlar sohalarida yangi malakalar va konikmalarni talab qiladigan yangi kasblar yaratish orqali amalga oshirishi mumkin. Bu jarayon,

shuningdek, ishlovchilarning ozgaruvchan talablar va malakalarga moslashuvini taminlashni ham oz ichiga oladi. Biroq, hukumatlar nafaqat yangi ish orinlari yaratish bilan cheklanmasdan, balki suniy intellektning ijtimoiy-iqtisodiy tasirlarini inobatga olgan holda, ishchilarning huquqlarini himoya qilish, ularning noaniqliklaridan himoya qilish va mehnat sharoitlarini adolatli qilishni ham oz zimmasiga olishi kerak. Bu, ayniqsa, noxush ijtimoiy oqibatlarini kamaytirish va umumiy barqarorlikni taminlash uchun muhimdir. Hukumatlar, shuningdek, suniy intellektni mehnat bozorida boshqarishda yangi normativ hujjatlar va regulatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish orqali texnologiyalarni foydalanuvchilar uchun yanada xavfsiz va barqaror qilishlari lozim.

Xalqaro hamkorlik asosida global miqyosda suniy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlarining mehnat bozorida ozgarishlariga moslashish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Yangi texnologiyalar va avtomatizatsiya jarayonlarining ijtimoiy va iqtisodiy tasirlari faqat milliy darajada emas, balki global miqyosda ham sezilarli bo'lmoqda. Shu sababli, davlatlar va xalqaro tashkilotlar ortasida hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni boshqarish, mehnat bozorida adolatni taminlash va global tenglikni yaratishda hamkorlik qilish kerak. Yangi kasblar va texnologiyalarni boshqarishda, shuningdek, mehnat bozorida noaniqliklarni bartaraf etishda global miqyosda birgalikda ishlash zarur. Xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT va Yevropa Ittifoqi, bu sohada strategik yondashuvlar ishlab chiqishda, normativ hujjatlarni tayyorlashda va texnologiyalarni boshqarishdagi global meyorlarni belgilashda muhim rol oynaydi. Global hamkorlik, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda muhim, chunki ular yuqori texnologiyalarga moslashish va mehnat bozorini qayta shakllantirishda yordam olishlari kerak. Bu orqali barcha mamlakatlar va mintaqalarda teng sharoitlar yaratish imkoniyatlari yuzaga keladi, bu esa global barqarorlikni taminlashga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlik, shuningdek, mehnat bozorida ozgarishlarga moslashish uchun birgalikda bilim almashish, tajriba va innovatsiyalarni birlashtirish imkonini beradi, bu esa butun dunyo boylab ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Bu yondashuvlar mehnat bozorida ozgarishlarga tayyor turish, yangi texnologiyalarni boshqarish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini minimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qismimizda umumiy tahlillarimizni, kelajak istiqbollarimizni hamda amaliy tavsiyalarimizni qarang chiqishimiz mumkin. - Umumiy tahlil sifatida aytishimiz mumkinki, suniy intellekt texnologiyalarining mehnat bozorida orni yanada chuqurlashib bormoqda. Bu ozgarishlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki ijtimoiy va axloqiy masalalarga ham katta tasir krsatmoqda. Suniy intellektning jamiyatdagi ish resurslarini qayta taqsimlashdagi roli, yangi kasblarning paydo bolishi va eski kasblarning yoqolishi jarayonida, iqtisodiy va ijtimoiy adolatni taminlash masalalari alohida etiborni talab etadi. Buning uchun yangi yondashuvlar va paradigmalar yaratish zarur. - Kelajakdagi istiqbollar shuni korsatadiki, suniy intellektning tasirini yanada yaxshilash uchun kelajakda, iqtisodiy barqarorlikni taminlash maqsadida yangi siyosat va strategiyalar ishlab chiqish zarur. Yangi texnologiyalarning rivojlanishiga qarshi kurashishda, kasblarni moslashtirish va ishchilarning malakasini oshirish ustuvor vazifalardan biri bolishi kerak. Kelajakda texnologik ozgarishlar nafaqat ish orinlarini yaratishga, balki ijtimoiy tenglikni taminlashga ham yordam berishi lozim. - Amaliy tavsiyalar muhim qism hisoblanadi, yani suniy intellekt texnologiyalarining mehnat bozorida muvaffaqiyatli qollanilishi uchun bir qator amaliy tavsiyalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ishchilarning yangi texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirishga qaratilgan oquv dasturlari tashkil etilishi zarur. Shu bilan birga, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar or-

tasidagi hamkorlikni mustahkamlash va birgalikda yangi ish orinlarini yaratish, texnologiyalarni boshqarish uchun siyosatlarni ishlab chiqish kerak. Bu amaliyotlar texnologik ozgarishlardan maksimal darajada foyda olish, barqaror ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

References

1. Akramov, A. (2019). Mehnat bozorida suniy intellekt texnologiyalarining roli. Tashkent: Ozbekiston Respublikasi Innovatsiyalar va Texnologiyalar Universiteti.
2. Tursunov, B. (2021). Suniy intellekt va iqtisodiy inqilob. Toshkent: Ozbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Sattorov, M. (2018). Mehnat bozorida ozgarishlar va suniy intellekt. Tashkent: Xalqaro iqtisodiy taraqqiyot markazi.
4. Abdullaev, F. (2019). Texnologiyalar va mehnat bozorida yangiliklar: Yangi kasblar va malakalar. Tashkent: Ozbekiston davlat iqtisodiyot universiteti.
5. Mahmudov, Sh. (2020). Yangi texnologiyalar va ishchi kuchining evolyutsiyasi. Toshkent: Ozbekiston yoshlar ilmiy jamiyat
6. Brynjolfsson, E., McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton Company.
7. Chui, M., Manyika, J. (2016). Where machines could replace humans—and where they cant (yet). McKinsey Quarterly.
8. Frey, C. B., Osborne, M. A. (2017). The future of employment: How susceptible are jobs to computerization? Technological Forecasting and Social Change, 114, 254-280.
9. Zengler, T. (2019). Artificial Intelligence in the Workforce: How to Prepare for the Future of Work. McKinsey Company.
10. Arntz, M., Gregory, T., Zierahn, U. (2016). The Risk of Automation for Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis. OECD Social, Employment and Migration Working Papers No. 189.
11. World Economic Forum (2020). The Future of Jobs Report 2020. World Economic Forum.
12. Brynjolfsson, E., McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. W.W. Norton Company.
13. Autor, D. H., Dorn, D. (2013). The Growth of Low-Skill Service Jobs and the Polarization of the U.S. Labor Market. American Economic Review, 103(5), 1553-1597.
14. Acemoglu, D., Restrepo, P. (2018). Artificial Intelligence, Automation, and Work. NBER Working Paper No. 24196.
15. Daugherty, P. R., Wilson, H. J. (2018). Human + Machine: Reimagining Work in the Age of AI. Harvard Business Review Press.